

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабилова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)

**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Фофуров Низомжон Октябрович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Сабиров Алишер Сабирович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам (США)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Муйдинова Моҳира Муқимжоновна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ходжаев Собир Джумаевич**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)  
**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Акрамов Хусан Фуркатович**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харасович**  
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Сеитов Азамат</b> РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
<b>2. Sabirova Umida</b> SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
<b>3. Алексеева Виктория</b> КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
<b>4. Kayumov Kaxramon</b> KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....	30
<b>5. Alikariyeva A'loxon</b> TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
<b>6. Mannanova Nilufar</b> DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
<b>7. Mo'minov Zokirjon</b> IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	51
<b>8. Jiyanmurotova Gulnoz</b> YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
<b>9. Сеитов Мансур</b> МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
<b>10. Узакова Зарина</b> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
<b>11. Ziyayeva Xolida</b> AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
<b>12. Imomova Nozimaxon</b> MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI.....	88
<b>13. Shokirov Shaxrizod</b> HUQUQBULARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

<b>14. Ixtiyarov Farxod</b> INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
<b>15. Akramov Xasan</b> YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
<b>16. Kalanova Sabohat</b> JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
<b>17. Axrorov Zohidjon</b> O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
<b>18. Xujanov Zafar</b> KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
<b>19. Turanazarov Umid</b> KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
<b>20. Kaxarova Nilufar</b> SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
<b>21. Хакимова Анора</b> ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
<b>22. A‘zamxonov Saidabzalxon</b> TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
<b>23. Ro‘zimatov Elbek</b> VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
<b>24. Masharipov Baxtiyar</b> SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
<b>25. Muzaffarov San‘atbek</b> VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
<b>26. Yo‘ldashev Shoxrux</b> YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

➤ So‘nggi shakli ma‘lum bir sabablarga ko‘ra majburiy ketgan muhojirlar sanaladi. Bularga asosan qochoqlar kiradi.

Shu o‘rinda, mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta‘siri sifatida “mehnat sharoitlari” holati nimani anglatishini aniqlashga harakat qildik, chunki, mehnat muhojirlari mehnatini asosiy unumini oshirishga ta‘sir qiladi. Ayrim mutaxassislar, jumladan, iqtisodchi olimlar uchun, mehnat sharoiti deganda “mehnat jarayoni, inson faoliyatini amalga oshirishga ta‘sir etuvchi omillar majmuyi va mehnat migratsiyasi faoliyati migratsiyaning iqtisodiy sabablarini o‘rganishga” qaratiladi.

Mehnat sharoitini migrant faoliyatiga ta‘sirini to‘rt guruhda tahlil qilish mumkin:

- inson ruhiyatiga ta‘siri (havo harorati, shovqin, tebranish)
- kimyoviy moddalar ta‘siri (zaharli moddalar, ekologiyani buzilishi changli havo);
- biologik holatiga ta‘siri (yuqumli kasalliklar, mehnatning og‘irligi, striotiplar).
- mehnat migratsiyasining intensivligi (intellektual, hissiy, ruhiy holat stress, mehnat tartibi).

Mehnat muhojiri uchun asosan mehnat sharoiti muhim hisoblanib, ishlash joyining yaxshi holati muhojirning xavfsizligini ta‘minlovchi va migrant ruhiyatidagi stressli vaziyatni oldini oluvchi omil vazifasini bajaradi. Mehnat migratsiyasini shakllanishidagi asosiy omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin: demografik, etnik, siyosiy, iqlimiy, iqtisodiy va boshqalar. Demografik omillarning aholining jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichi bilan bog‘liq hisoblanib, ayrim demograflarni fikriga ko‘ra migratsiya dunyo aholisining umumiy soniga hech qanday ta‘sir o‘tkazmaydi, chunki, u doimo nolga teng, ya‘ni immigrantlarning soni emigrantlar sonida teng deb hisoblashadi.

Mamlakatdagi mehnat migratsiyasi jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari va tendentsiyalari, ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatiga ta‘siri, uning oqibatida yuzaga keladigan ijobiy va salbiy holatlar har tomonlama tizimli ilmiy tahlilni talab qiladi. Muallifning fikricha, jamiyatimiz istiqboli uchun mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solinishi, mamlakatning demografik rivojlanishi, mutaxassislarni yo‘qotish, pul aylanmasini oshirish, migrant bolalari psixologiyasidagi o‘zgarishlarni o‘rganish kabi ko‘plab masalalar bugungi kunning dolzarb muommolaridan hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa va taklif o‘rnida shuni aytish mumkinki, migratsion jarayonlarni tahlil qilishda migratsiya bilan bog‘liq muhim muammolarni o‘rganish lozim. Mazkur muammolarni tahlil etishga ikki taraflama yondoshish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, migratsiya holatini keltirib chiqaradigan davlat va jamiyatdagi muammolar (kambag‘allik, ishsizlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, kelajakka nisbatan ishonchsizlik va umidsizlikka tushish, turli xil nizolar, doimiy qo‘rquv) kabi muommolarning mavjudligi.

Ikkinchidan, migratsiya jarayoni yuzaga kelganidan so‘ng ro‘yobga chiqadigan muammolar (migrantlarning ekspluatatsiya qilinishi, huquqlarining poymol etilishi, yangi maskan bo‘lgan davlatdagi xalq turmush tarzi va madaniyatiga adaptatsiyalashish jarayonidagi qiyinchiliklar, tub aholining ishsiz qolishiga sabab bo‘ladigan migrantlarga nisbatan salbiy munosabatlar).

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mehnat migrantlari qabul qiluvchi mamlakatda turli ijtimoiy o‘zgarishlarning ham yuz berishiga sabab bo‘ladi. Y‘ani, turli ma‘naviy, diniy va madaniy qarashlarga ega bo‘lgan qatlamlarning shakllanishiga olib keladi hamda mamlakatda ruhiy holatning o‘zgarishiga va turli qo‘rquvlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

## Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli>.
2. CRIA-full-uzb-in-uzb.pdf.
3. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli>.
4. Луков В.А. История социологии в конспективном изложении: учеб. пособие. – М. : Социум, 2001. Ч. I. – С. 8-13.
5. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli>.

6. [https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr\\_2020-ru.pdf](https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf)
7. Федорако А. Теория трудовой миграции. Журнал. Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2019. – № 2 (часть 1). – С. 137-145.
8. CRIA-full-uzb-in-uzb.pdf.
9. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b.
10. Луков В.А. История социологии в конспективном изложении: учеб. пособие. – М.: Социум, 2001. Ч. I. – С. 8-13.
11. Leibfried S., Huber E., Lange M., Levy j.d., Nullmeier F. and j.d.stephens: Transformations of the state, : Oxford university press 2015.p-1.
12. [https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr\\_2020-ru.pdf](https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf).
13. Демографическая ситуация в Республике Узбекистан в 2022 году, данные Государственного комитета по статистике Республики Узбекистан. <https://stat.uz/ru>.
14. Department of Economic and Social Affairs, Population Dynamics // opulation Division. World Population Prospects, 2019. – P.22.
15. Мигрант меҳнаткашлар тўғрисидаги (қўшимча қоидалар киритилган). 143-конвенция <https://nrm.uz/contentfdoc.151100> migrant mehnatkashlar torisidagi (qoshimcha qoidalar kiritilgan) 143-konvenciya (Jeneva 1975-yil 24-iyun hmt bosh konferenciyasining 60-sessiyasida qabul qilingan 1978-yil 9-dekabrdan kuchga kirgan).

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Shokirov Shaxrizod,**


“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”

Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi

Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tadqiqotchisi

e-mail: shokirovshaxrizod78@gmail.com

### HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800142>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada muallif huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlash omillarini taхлил қилган. Ma’lumki, bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish darajasiga nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo mamlakatlarida alohida e’tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish, shuningdek davlat va jamiyat boshqaruvini rivojlantirishda ham jamoatchilik fikri va roli yuqori hisoblanadi. Ayniqsa, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining davlat idoralari va nodavlat tashkilotlarning o‘zaro yakdil hamkorlikdagi a’loqalarini tizimli yo‘lga qo‘yish orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va echimini topish juda muhimdir. Bas, shunday ekan, jamiyatimizdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilik fikri avvalo fuqarolarning nuqtai-nazarlari, ijtimoiy adolatga bo‘lgan ehtiyojini ifolashda yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** huquqbuzarlik, jinoyatchilik, fuqarolik jamiyati, dunyoviy davlat, guruh, inson qadri, jamoatchilik fikri, mentalitet, afv, an’ana hamda urf-odatlar.

**Шакиров Шахризад,**

исследователь Бухарского института управления природными ресурсами при Национальном исследовательском университете

«Ташкентский институт инженеров ирригации

и механизации сельского хозяйства»

e-mail: shokirovshaxrizod78@gmail.com

### СОТРУДНИЧЕСТВО С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ПРАВОНАРУШЕНИЙ И ПРЕСТУПЛЕНИЙ

#### АННОТАЦИЯ

В статье автор проанализировал факторы сотрудничества с общественностью в профилактике правонарушений и преступлений. Известно, что сегодня особое внимание уделяется уровню развития институтов гражданского общества не только в нашей стране, но и в большинстве стран мира. Общественное мнение и его роль в становлении нового

Узбекистана, а также в развитии государственного и общественного управления считаются высокими. В той связи особенно важно выявлять и решать социальные проблемы путем установления системной связи между общественным мнением, государственными органами и неправительственными организациями в целях предотвращения нарушений и преступлений. Поэтому при предупреждении преступлений в нашем обществе общественное мнение помогает выражать взгляды граждан и их потребность в социальной справедливости.

**Ключевые слова:** правонарушение, преступление, гражданское общество, светское государство, группа, человеческие ценности, общественное мнение, менталитет, амнистия, традиции и обычаи.

**Shokirov Shaxrizod,**

researcher at the Bukhara Institute of Natural Resources  
Management at the National Research University “Tashkent Institute of  
Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”  
e-mail: shokirovshaxrizod78@gmail.com

## COOPERATION WITH THE PUBLIC IN THE PREVENTION OF OFFENSES AND CRIMES

### ABSTRACT

In the article, the author analyzed the factors of cooperation with the public in the prevention of delinquency and crime. It is known that today special attention is paid to the level of development of civil society institutions not only in our country, but also in most countries of the world. Public opinion and its role in the formation of a new Uzbekistan, as well as in the development of state and public administration, are considered high. In this regard, it is especially important to identify and solve social problems by establishing a systematic connection between public opinion, government bodies and non-governmental organizations in order to prevent violations and crimes. Therefore, in preventing crime in our society, public opinion helps to express the views of citizens and their need for social justice.

**Key words:** offense, crime, civil society, secular state, group, human values, public opinion, mentality, amnesty, traditions and customs.

### KIRISH

Rivojlangan demokratik davlatni barpo etishda, avvalo qonun ustuvorligini ta'minlash talab etiladi. Bunda birinchi o'rinda, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda hamda fuqarolik jamiyatida adolat mezonlarini tizimli yo'lga qo'yishda jamoatchilik fikrining ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning rivojlanayotgan davlatlariga nazar solsak, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish borasidagi davlat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi amaliy ishlarda jamoatchilik fikrining faoliyat darajasi samarali olib borilganligi mamlakatni barqaror rivojlanishida katta o'rin egallaganligini aytishimiz mumkin.

Dunyo mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish darajasi bir xil emas. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining o'zini o'zi anglashi va demokratik jarayonlarni noyob instituti hisoblanadi. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining davlat idoralari va nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorlik a'loqalarini tizimli yo'lga qo'yish orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va yechimini topishda namoyon bo'ladi.

### METODOLOGIYA

Yangi O'zbekistonni barpo etish hamda davlat va jamiyat boshqaruvida, ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi omillardan biri sifatida jamoatchilik fikri muhim rol egallaydi. Davlat rahbari 2023-yil 28-iyun kuni Farg'ona shahrida Ichki ishlar vazirligining kengaytirilgan hay'at yig'ilishida "Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug'lashni eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etdik va bu borada katta o'zgarishlarni boshladik. Yangi O'zbekiston, bu – huquqiy davlat ekanligini yangilangan Konstitutsiyamizda ham muhrlab qo'ydik. Yagona maqsadimiz – adolat va qonun

ustuvorligini ta'minlash orqali xalqimizni rozi qilishdan iborat" [1], - deb takidlagan edi. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikri esa fuqarolar nuqtai-nazarlari, ijtimoiy adolatga bo'lgan ehtiyojini ifodalab, ijtimoiy institutlar faoliyatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, jamoatchilik fikrining tutgan o'rni yuqoridir, chunki, jamoatchilik fikri deganimizda, ommaning xohish-irodasi, ijtimoiy adolat mezoni, jamiyatning intilishlari, maqsad va kayfiyatlarini o'zida mujassam etadi.

### ASOSIY QISM

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ilgari suriluvchi fikrlar plyuralizmi, bahs muzokaralarga boy ekanligi hamda ochiq maydonda olib borilishi bilan davlat boshqaruvining shaffofligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish borasida "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi [2] Qarori hamda "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [3] Farmoni va boshqa huquqiy-normativ hujjatlarda nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash, davlat organlari va ular o'rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borish zarurligini ta'kidlagan.

Mamlakatimizda oxirgi ikki yil ichida huquq-tartibot faoliyatiga oid 10 ta qonun, 40 ga yaqin Prezident farmon va qarorlari, 60 dan ortiq hukumat qarorlari qabul qilingani qayd etildi.

Umuman olganda, jamoatchilik fikri asosida hamkorlikda ish olib borishning nazariy metodologik xususiyatlarini aniqlash hamda o'rganish bo'yicha ilmiy va amaliy izlanishlarni tashkil etishni yanada kuchaytirish lozimligi talab etilmoqda. Xususan, jahonda huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish, inson qadrlarining hamma narsadan ulug' ekanligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina mamlakatimizda 2021-yilning olti oyida har 100 ming aholi soniga nisbatan 132 ta jinoyatlar to'g'ri kelgan. Bu 2017-yilning olti oyiga nisbatan qariyb ikki baravar ko'p (8 592 / 15 321 ta) jinoyatlar aniqlangan [4], 2021-yilda 1472 nafar voyaga yetmagan shaxs sudlangan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 2116 nafarga yetgan [5]. Mazkur muammoni yechishda nafaqat davlat tuzilmalari, balki ijtimoiy faollikni ham ta'minlash maqsadga muvofiq. Bu borada jamoatchilik fikri mazkur muammoning oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlardan anglash, yangi Konstitutsiyamizda belgilangan huquqiy, demokratik, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, ishlab chiqilgan bir qancha konsepsiyalarning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda.

Jinoyatchilik statistikasini yuritishda xalqaro hamjamiyat umume'tirof etilgan ijobiy tajribasidan kelib chiqib, 100 ming aholi soniga nisbatan hisoblanishi yo'lga qo'yildi. Kriminogen vaziyatni xolisona tahlil qilish, jinoyatlarni yashirmaslik maqsadida, xodimlar tashabbusi bilan aniqlanadigan jinoyatlar ijobiy natija sifatida baholash tizimiga o'tildi. Buning uchun, har bir mahallaga bir nafardan profilaktika inspektori ajratilib, ularning soni 9784 nafargacha (ilgari 5867) yetkazildi va o'rtacha 3,5 ming aholiga (ilgari 5,5 ming) xizmat qilinishi ta'minlandi. Ularning uzluksiz xizmat faoliyati amalga oshirilishi uchun 6787 ta xizmat uylari va 7388 ta shaxsiy avtomashina xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Profilaktika inspektori mahalla raisining huquq-tartibotni ta'minlash bo'yicha o'rinbosari etib belgilandi.

Xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va ularning xavfsizligini ta'minlash uchun 362 nafar ayollar masalalari bo'yicha inspektorlar faoliyati yo'lga qo'yildi. (ilgari bu vazifani profilaktika inspektori bajargan). Mahalladagi xavfsizlik holati har oyda aholi tomonidan, bu borada amalga oshirilgan ishlar natijalari esa Xalq deputatlari tuman-shahar kengashlari tomonidan baholab borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Jahondagi xorijiy mamlakatlar tajribalariga tayanadigan bo'lsak, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishda jamiyat a'zolarining bir yoqadan bosh chiqarishga va umumiy maqsad yo'lida jipslashishga intilishlarini mujassamligini ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda ro'y berishi mumkin bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlarning yuzaga kelishi va oqibatlarni

tahlil etishda nafaqat davlat tashkilotlari, balki fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro hamkorlikda ish tutishlari katta ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, jamoatchilik fikri har bir xalq va ijtimoiy guruhlarining mentalitetini, urf-odatlarini, an'analarini hamda eng muhimi xarakterini bilib olishimizda katta ahamiyat kasb etadi.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining ustuvor mavqei nafaqat G'arb mamlakatlarida, balki Sharq davlatlarida ham amal qilgan. Jamoatchilik fikri jamiyatning ongi sifatida bir qancha ijtimoiy voqea-hodisalarni boshqarishda, ularni to'g'ri yo'naltirishda, aholining turli tabaqalari vakillari manfaatlarini himoya qilish jarayonlarida, fuqarolik jamiyati institutlarini tashkil etish va baqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qilib kelgan.

Jamoatchilik fikrini insonlar hayot jarayonlarini pozitivlashtirish, inson qadrini yuksaltirish me'zoni va ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namayon bo'lishi Yangi O'zbekiston jamiyatini harakterli belgisidir. Shu kuchni muayyan ijtimoiy maqsadlarga xizmat qildirish asrlar mobaynida turli jamiyatlarni boshqarishda asosiy tamoyillardan biri bo'lib keldi. Zero, kishilik tarixida jamoatchilik fikriga mustahkam tayanmasdan turib, biror bir olamshumul voqeaning amalga oshirilganligini eslash o'ta mushkuldir [6].

Hozirgi demokratik davlat qurishda va xalq manfaatlarini himoya qilib chiqishda ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish va jamoatchilik fikri jamiyat turmush tarzining tabiiy va sub'ektiv maqsadlarini ko'zlamagan holda amal qilishi kerak.

Har bir fuqaroga hukumat tomonidan mustaqil fikr qilish, so'z va e'tiqod erkinligi bilan ta'minlansa hamda jamoatchilik tomonidan jamiyat rivoji uchun bildirilgan fikr va mulohazalar biror bir tazyiqsiz bildirila olinishi va uning kafolatlanishi mamlakatning ijtimoiy turmushini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Yangi O'zbekiston konstitutsiyasida «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. [OKOZ:1.01.00.00.00 Konstitutsiyaviy tuzum / 01.06.00.00 Inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari va burchlari / 01.06.02.00 Asosiy (Konstitutsiyaviy) shaxsiy huquq va erkinliklar / 01.06.02.06 Har qanday axborotni izlash, topish va tarqatish huquqi] [7].

«Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega» [8], deb ifoda etilgan. O'zbekiston fuqarolari o'zlarining fikrlarini ifodalash maqsadida istalgan shakllarda tanlanishi hamda istalgan ijtimoiy natijaga erishishlari va shaffoflikni ta'minlanishlari uchun imkoniyatlar mustahkamlangan. «Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega» [9].

Hozirgi kunda jamoatchilik fikrini tashkil topishi faqat miting, baqir-chaqir va anarxiya ko'rinishidagi tartibsizliklardan emas balki fuqarolik jamiyati institutlari, hususan hozirgi kunda keng ommalashayotgan blogerlik jamiyati, OAV va bir qancha saytlar orqali jadallashmoqda. Bugungi kunga kelib jamoatchilik fikri yig'ilishlar va byurokratizm orqali emas, balki xalq manfaati, jamiyat rivoji uchun bajarilayotgan chora-tadbirlarining samaradorligi ko'rsatkichlari orqali shakllanib, amalda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlariga va barcha davlat organ tashkilotlariga baho berilmoqda.

Xususan, Ichki ishlar faoliyatida mavjud kamchilik va muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish maqsadida Prezidentimizning 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son karoriga muvofiq [10], Ichki ishlar vazirining «IIV va uning xududiy bulinmalari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 122-sonli buyrug'i bilan Kengash faoliyati yo'lga ko'yildi. Turli soha vakillari va ommaviy axborot vositalari vakillaridan iborat tarkib yangitdan tuzilib, vazifa va funksiyalari ishlab chiqildi.

Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolarining ichki ishlar faoliyatining ochiqqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarini monitoring qilish hamda uning faoliyati to'g'risida axborot olish maqsadida har yili hisobot yig'ilishi o'tkaziladi.

Shu bilan birga, tizimda korrupsiyaviy holatlarni oldini olish, inson omilini kamaytirish borasida «E-nomzod», «E-kadr», «E-ijtimoiy himoya» kabi raqamlashtirish ishlari faollik bilan olib borilayotganligini Jamoatchilik kengashi o'z vaqtida nazorat qilib, milliy media makonni uzluksiz

monitoring qilib borishda, IIV tizimi faoliyatiga taalluqli normativ-xuquqiy xujjatlar qabul kilinishida ishtirok etib kelmoqda.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2021-yil 26-iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori [11], tizimda insonparvarlik tamoyiliga rioya etish, qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Qarorga mumofiq, Ombudsman huzurida qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlarini faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Jamoatchilik guruhlariga harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda qiynoqqa solishning oldini olish bo‘yicha monitoring tashriflarini muntazam ravishda amalga oshirish, mahkumlar saqlanadigan joylardagi shart-sharoitlarni o‘rganish, qiynoqqa solish holatlarini aniqlash hamda ularni tezkor bartaraf etish bo‘yicha talabnomalarni tegishli davlat organiga taqdim qilish kabi vazifalar yuklatildi.

Shuningdek, barcha jazoni ijro etish koloniyalarida Ombudsmanga, prokurorga murojaat, ariza va shikoyatlarga mo‘ljallangan alohida pochta qutilari o‘rnatildi.

Qonunlarga rioya etilishi prokuratura idoralari hamda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili tomonidan muntazam ravishda monitoring qilib borilmoqda. Jumladan, 2023-yilning 10 oyida Ombudsman va Jamoatchilik guruhlarini tomonidan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga 452 marotaba monitoring tashriflari amalga oshirildi. 2022-yilning 10-oyida ushbu ko‘rsatkich 297 tani tashkil etgan edi. Monitoring tashriflari davomida 8 mingdan ortiq mahkum va mahbuslar bilan jamoaviy hamda 3 ming nafarga yaqin shaxs bilan yakka tartibda suhbatlar o‘tkazildi [12].

Tashriflarda ushbu muassasalarda saqlanayotgan shaxslarni yashash, ovqatlanish, mehnat qilish hamda tibbiy yordam ko‘rsatish holati va sifati, saqlanayotgan shaxslar uchun olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar hamda sanitariya-gigiena talablariga rioya etilayotganligi va boshqa shu kabi holatlar o‘rganildi. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosati aholining barcha toifalarini qamrab olgan. Jumladan, jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarga nisbatan munosabatda ham ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Avvalo, jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni jazolash emas, balki tarbiyalash ustuvor maqsadga aylandi.

Qilmishiga chin dildan pushaymon bo‘lgan, xatosini anglab yetgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan mahkumlarni afv etish, ularga hayotini yangidan boshlash imkoniyatini taqdim etishdek insonparvar siyosatga katta e‘tibor qaratilmoqda. 2016-2023-yillar davomida Prezidentimizning farmonlari bilan 7128 nafar shaxs afv etilgani fikrimiz dalilidir.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas‘ul vazirlik va idoralarga, mahalliy hokimliklarga tegishli topshiriqlar berib borilmoqda.

Shundan kelib chiqib, viloyat sektorlar rahbarlari, tegishli korxonatashkilotlar mutasaddilari va Jamoatchilik kengashi a‘zolari afv etilgan fuqarolar bilan uchrashib, ularning har biri bilan alohida muloqotlar qilinmoqda. Ijtimoiy hayotga moslashib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun imkoniyatlari o‘rganilmoqda.

Afv etilganlar bilan suhbat asnosida sektor rahbarlari ularning ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiyasi, sog‘lom turmush tarziga qaytarish masalalari bo‘yicha huquqni muhofaza qilish idoralari, sog‘liqni saqlash, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari, boshqa mutasaddi tashkilotlar rahbarlari, mahalliy hokimliklar bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab olinmoqda.

Afv etilgan kishilarga bundan buyon xalqimiz va Prezidentimizning ishonchini oqlab, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, yuz berayotgan o‘zgarish va yangilanishlarning faol ishtirokchisi bo‘lishi kerakligi uqtirib borilmoqda. Jazodan ozod etilganlar qilgan ishlaridan pushaymonliklarini ta‘kidlab, bildirilgan ishonch uchun xalqimiz va hukumatimizdan minnatdor.

Albatta, olib borilayotgan chora-tadbirlar doirasida jamoatchilik nazoratini o‘rnatish va bunda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roolidan foydalanish

maqsadga muvofiq. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining rovida keng jamoatchilik ishtirok etib, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash, ish hayoti, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy xizmatlar, siyosiy va huquqiy tizimlari muhokamasi, masalalari ko'rib chiqiladi hamda jamoatchilik fikriga ta'sir etib, davlat darajasiga olib chiqiladi.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan nazorat qilish ob'ektlarini aniqlash bo'yicha xorijiy va xalqaro tajriba esa jamiyatni rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarishda muhim rol egallaydi. Yuqoridagi fikr mulohazalardan shu ma'lumki, agarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining davrida ijtimoiy - siyosiy harakatlarni amalga oshirishda umumiy qadriyatlarni jamlagan jamoani shakllantirishi uning faoliyatidagi eng katta yutug'i hisoblanadi.

### XULOSA

Ushbu maqolamiz mavzusi doirasida xulosamiz quyidagicha:

Jamoatchilik fikrini amalga oshirayotgan isloxotlar mohiyatini odamlarga to'g'ri anglatish jamiyatni ijtimoiy konsolidasiya etilishiga imkon yaratadi. Shu boisdan, yetuk ekspertlar, jamiyatdagi obro'-e'tiborli shaxslar va sotsiologlardan tarkib topgan «jamoatchilik fikri kengashini» tashkillashtirish hamda mamlakatdagi ijtimoiy muammolarga nisbatan to'g'ri jamoatchilik fikrini tarkib toptirishning huquqiy, ma'naviy va ma'rifiy diskursini shakllantirish katta ahamiyatga egadir.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining rolini o'rganish orqali jamoatchilik fikrida ro'y berayotgan jarayonlarni nazorat qilish imkoniyatiga erishish mumkin.

Jamoatchilik nazoratining muhim xususiyati aholi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda hamda davlat dasturlariga nisbatan jamoatchilik fikrini nomoyon etish orqali, islohotlarga o'zining daxldorligini ifoda etadi.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarining himoyasini, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarini, davlat xizmatlarining samarali ko'rsatilishini ta'minlash hisoblanadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi pragmatik islohotlar samarasi tufayli jamiyatda jamoatchilik nazoratining ham ta'sir doirasi sezilarli ravishda kuchayganligi sababli jamoatchilik fikriga bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy e'tibor ortdi.

### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 28-iyun kuni Farg'ona shahrida Ichki ishlar vazirligining kengaytirilgan hay'at yig'ilishidagi nutqidan. <https://www.xabar.uz/huquq/prezident-iivning-hayat-yigilishida-qatnashadi>.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PQ-4501-sonli «Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori <https://lex.uz/docs/4572953>.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 martdagi PF-6181-sonli «2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni <https://lex.uz/docs/5319756>.
4. Ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilgan islohotlar. 2021-yil 30-iyul. <https://iiv.uz/oz/news/ichki-ishlar-organlari-tizimida-amalga-oshirilgan-islohotlar>.
5. <https://kun.uz/news/2023/10/03/8-oyda-2-mingdan-ortiq-voyaga-yetmaganlar-tomonidan-jinoyat-sodir-etilgan>.
6. Бекмуродов М.Б. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри. – Т. Ўзбекистон Республикаси ижтимоий фикр жамоатчилик маркази, 1999. – Б. 3-4.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.
8. <https://lex.uz/docs/6445145>. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan. 33-modda.

9. <https://lex.uz/docs/6445145>. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 38-modda.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. – Toshkent, 2023. 20.01.2023 yildagi PQ-10-son.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 26-iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2021. PQ-5163-son 26.06.2021.
12. <https://ombudsman.uz/uz/news/2023/11/15/qiynoqqa-solish-holatlarini-aniqlash-va-oldini-olish-yuzasidan-oliy-majlisning-inson-huquqlari-boyicha-vakili-ombudsman-tomonidan-2023-yilning-10-oyida-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan-brifing>.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000